TASDIQLAYMAN
O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i
_____ I.Madatov
2026-yil 14-oktabr

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
4-bosqich Maktabgacha ta'lim (sirtqi) yo‘nalishi talabalariga 7-semestr uchun
« Bolalar uchun art-terapiya asoslari » fanidan yakuniy nazorat savollari
Imtihon shakli: yozma-og‘zaki

№	Mavzu	1-QISM «OSON SAVOLLAR» deb nomlanadi va semestrda o'qitilishi rejalashtirilgan mavzularning kirish qismidan asosan nazariy savollardan iborat bo'ladi (tayanch iborasi bo'ladi).	2-QISM «ODDIY SAVOLLAR» deb nomlanadi va semestrda o'qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 1-rejasidan asosan mulohazaviy savollardan iborat bo'ladi (tayanch iborasi bo'ladi).	3-QISM «MURAKKAB SAVOLLAR» deb nomlanadi va semestrda o'qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 2-rejasidan asosan qoidalar, tamoyillar kabi savollardan iborat bo'ladi (tayanch iborasi bo'lmaydi).	4-QISM «MURAKKAB SAVOLLAR 2» deb nomlanadi va semestrda o'qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 3-rejasidan asosan tendensiyalar, paradigmalar, konsepsiyalar kabi savollardan iborat bo'ladi (tayanch iborasi bo'lmaydi).	5-QISM «QIYIN SAVOLLAR» deb nomlanadi va semestrda o'qitilishi rejalashtirilgan mavzularning xulosa, ya'ni yakuniy qismidan asosan talabani mustaqil fikrlashga, mavzuni to'liq anglashga yo'naltiradigan savollardan iborat bo'ladi (tayanch iborasi bo'lmaydi).
1,	**Art terapiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Asosiy tushunchalar**	"Art terapiya" atamasining ma'nosini ayting. **T.I.:** art – san'at, terapiya – davolash, ijodiy faoliyat, psixologik yordam.	Art terapiya fanining predmeti va obyektini ayting. **T.I.:** shaxs, emotsional holat, ijodiy ifoda, psixokorreksiya.	Art terapiyaning maqsad va vazifalarini sanang.	Art terapiyaning psixologiya, pedagogika va tibbiyot fanlari bilan aloqasini izohlang.	Nima uchun art terapiya maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda samarali vosita hisoblanadi? Fikringizni asoslang.
1,		Art terapiyaning asosiy funksiyalarini ayting. **T.I.:** katarsis, regulyativ, kommunikativ, diagnostik, korreksion.	Art terapiya jarayonining asosiy komponentlarini ayting. **T.I.:** bola (mijoz), art terapevt, ijodiy mahsulot, uchburchak munosabat.	Art terapiyada "katarsis" tushunchasini izohlang.	Art terapiyaning tamoyillarini (prinsiplarini) sanang va ularga tavsif bering.	"San'at – ruhning davosi" degan fikrga munosabat bildiring.
2,	**Art terapiyaning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi**	"Art terapiya" atamasini fanga birinchi bo'lib kim kiritgan? **T.I.:** Adrian Xill, sil kasalligi, sanatoriy, rasm chizish.	Sharq allomalarining san'at orqali davolash haqidagi qarashlarini ayting. **T.I.:** Ibn Sino, Forobiy, musiqa, kuy, ruhiy salomatlik.	Art terapiyaning fan sifatida shakllanish bosqichlarini ayting.	M.Naumburg va E.Kramerning art terapiya rivojiga qo'shgan hissasini izohlang.	O'zbekistonda art terapiyaning rivojlanish istiqbollari haqida fikr bildiring.
2,		Abu Nasr Forobiyning musiqa haqidagi asarini ayting. **T.I.:** «Katta musiqa kitobi», kuy, ohang, ruhiy holat.	Ibn Sinoning musiqa va davolash haqidagi qarashlarini ayting. **T.I.:** «Tib qonunlari», puls, ohang, kayfiyat.	Britaniya (BAAT) va Amerika (AATA) art terapiya assotsiatsiyalari qachon tashkil topgan?	Z.Freyd va K.G.Yung g'oyalarining art terapiyaga ta'sirini izohlang.	Qadimgi sivilizatsiyalarda san'atdan davolash maqsadida foydalanish tajribasini tahlil qiling.
3,	**Art terapiyaning nazariy-metodologik asoslari**	Art terapiyadagi psixoanalitik yondashuvning mohiyatini ayting. **T.I.:** Z.Freyd, ongsizlik, sublimatsiya, ramz, proyeksiya.	K.G.Yungning analitik psixologiyasi va art terapiya. **T.I.:** kollektiv ongsizlik, arxetip, mandala, ramz.	Art terapiyadagi gumanistik yondashuvning asosiy g'oyalarini ayting.	Geshtalt yondashuvda art terapiyaning o'rnini izohlang.	Art terapiyadagi turli nazariy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qiling.
3,		"Sublimatsiya" tushunchasining mazmunini ayting. **T.I.:** energiya, ijodiyot, himoya mexanizmi, ijtimoiy maqbul faoliyat.	Art terapiyada "proyeksiya" tushunchasini ayting. **T.I.:** ichki kechinma, tasvir, ramz, ongsiz jarayon.	Kognitiv-xulq-atvor yondashuvining art terapiyadagi ahamiyatini ayting.	Art terapiyaning direktiv va nodirektiv shakllarini izohlang.	Ramzlar (simvollar) tilining art terapiyadagi ahamiyatini yoriting.
4,	**Art terapiyaning turlari, shakllari va metodlari**	Art terapiya turlarini sanang. **T.I.:** izoterapiya, musiqa terapiyasi, ertak terapiyasi, qum terapiyasi, drama terapiya.	Faol va passiv art terapiyaning farqini ayting. **T.I.:** ijodiy jarayon, idrok etish, tayyor asar, mustaqil yaratish.	Individual art terapiyaning afzalliklarini ayting.	Guruhli art terapiyaning shakllari va xususiyatlarini izohlang.	Bolaning yoshi va holatiga qarab art terapiya turini tanlash mezonlarini asoslang.
4,		Art terapiya mashg'ulotining tuzilishini ayting. **T.I.:** kirish (razminka), asosiy qism, muhokama, refleksiya, yakun.	Art terapiyada foydalaniladigan materiallarni ayting. **T.I.:** bo'yoq, plastilin, loy, qum, qog'oz, tabiiy materiallar.	Art terapiyada tematik va erkin mashg'ulotlarning farqini ayting.	Integrativ (kompleks) art terapiya tushunchasini izohlang.	Art terapiya mashg'ulotida refleksiya bosqichining ahamiyatini yoriting.
5,	**Izoterapiya – tasviriy faoliyat orqali terapiya**	Izoterapiya tushunchasini ayting. **T.I.:** rasm, tasviriy faoliyat, rang, chiziq, emotsiya.	Izoterapiyada qo'llaniladigan noan'anaviy tasvirlash usullarini ayting. **T.I.:** monotipiya, kleksografiya, barmoq bilan chizish, nitkografiya, puantilizm.	Izoterapiyaning bola rivojlanishiga ta'sirini ayting.	"Kleksografiya" va "monotipiya" usullarining terapevtik ahamiyatini izohlang.	Bola chizgan rasmni tahlil qilishda nimalarga e'tibor berish kerak? Fikringizni asoslang.
5,		Mandala nima? **T.I.:** doira, markaz, K.G.Yung, uyg'unlik, ramz.	Kollaj usuli va uning imkoniyatlarini ayting. **T.I.:** jurnal qirqimlari, kompozitsiya, o'zini ifodalash, guruhli ish.	Bolalar rasmidagi ranglar va ularning psixologik ma'nosini ayting.	Loy va plastilin bilan ishlashning terapevtik ta'sirini izohlang.	Agressiv bolalar bilan ishlashda qo'llaniladigan izoterapiya mashqlarini tavsiya qiling va asoslang.
6,	**Musiqa terapiyasi**	Musiqa terapiyasi tushunchasini ayting. **T.I.:** kuy, ritm, ohang, tinglash, emotsional holat.	Musiqa terapiyasining faol va retseptiv shakllarini ayting. **T.I.:** tinglash, kuylash, cholg'u chalish, harakat.	Musiqaning bola organizmiga fiziologik ta'sirini ayting.	Retseptiv musiqa terapiyasining kommunikativ, reaktiv va regulyativ shakllarini izohlang.	Maktabgacha ta'lim tashkiloti kun tartibida musiqa terapiyasidan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qiling.
6,		Vokaloterapiya nima? **T.I.:** kuylash, nafas, ovoz, alla, emotsional bo'shalish.	O'zbek milliy musiqasi va allaning terapevtik ahamiyatini ayting. **T.I.:** alla, xalq qo'shiqlari, milliy cholg'ular, ona mehri.	Tinchlantiruvchi va faollashtiruvchi musiqa asarlariga misollar keltiring.	Ritmoterapiyaning nutqi buzilgan bolalar bilan ishlashdagi o'rnini izohlang.	"Motsart effekti" haqidagi qarashlarga munosabat bildiring.

7,	**Ertak terapiyasi**	Ertak terapiyasi tushunchasini ayting. **T.I.:** ertak, metafora, qahramon, ibrat, ichki dunyo.	Terapevtik ertak turlarini ayting. **T.I.:** badiiy, didaktik, psixokorreksion, psixoterapevtik, meditativ ertaklar.	Ertak terapiyasining vazifalarini sanang.	T.D.Zinkevich-Yevstigneyevaning ertak terapiyasi tizimini izohlang.	Bolaning muayyan muammosi (qo'rquv, uyatchanlik) uchun psixokorreksion ertak tuzish tamoyillarini asoslang.
7,		Ertak terapiyasida ishlash usullarini ayting. **T.I.:** ertak o'qish, tahlil qilish, davom ettirish, sahnalashtirish, rasm chizish.	O'zbek xalq ertaklarining tarbiyaviy-terapevtik ahamiyatini ayting. **T.I.:** «Zumrad va Qimmat», ezgulik, mehnatsevarlik, adolat.	Psixokorreksion ertakning tuzilishini ayting.	Ertakdagi metafora va uning bola ongiga ta'sir mexanizmini izohlang.	Ertak terapiyasini oilada qo'llash bo'yicha ota-onalarga tavsiyalar ishlab chiqing.
8,	**Qum terapiyasi**	Qum terapiyasi tushunchasini ayting. **T.I.:** qum, qumdon, miniatyura figuralar, o'yin, taktil sezgi.	Qum terapiyasining asoschilarini ayting. **T.I.:** M.Lovenfeld, «Dunyo texnikasi», D.Kalff, K.G.Yung.	Qum terapiyasi uchun zarur jihozlarni sanang.	Qum terapiyasining bola psixikasiga ta'sir mexanizmini izohlang.	Qum terapiyasini giperaktiv va xavotirli bolalar bilan ishlashda qo'llashni asoslang.
8,		Qumdonning standart o'lchami va rangini ayting. **T.I.:** 50x70x8 sm, ko'k rang, suv, osmon, quruq va ho'l qum.	Qum bilan o'tkaziladigan didaktik o'yinlarni ayting. **T.I.:** sensor rivojlanish, harf yozish, sanash, mayda motorika.	Qum terapiyasi mashg'ulotining bosqichlarini ayting.	Qumdagi kompozitsiyani tahlil qilish tamoyillarini izohlang.	Qum terapiyasining diagnostik va korreksion imkoniyatlarini qiyosiy tahlil qiling.
9,	**Drama terapiya, psixodrama va qo'g'irchoq terapiyasi**	Drama terapiya tushunchasini ayting. **T.I.:** rol, sahnalashtirish, improvizatsiya, teatr, tana.	Psixodrama asoschisi va uning mohiyatini ayting. **T.I.:** Ya.L.Moreno, protagonist, sahna, rol almashish, dubl.	Drama terapiyaning maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ahamiyatini ayting.	Psixodramaning asosiy texnikalarini (rol almashish, ko'zgu, dubl) izohlang.	Syujetli-rolli o'yin va drama terapiyaning o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qiling.
9,		Qo'g'irchoq terapiyasi tushunchasini ayting. **T.I.:** qo'g'irchoq, qo'g'irchoq teatri, rol, muloqot, I.Ya.Medvedeva, T.L.Shishova.	Qo'g'irchoq terapiyasida foydalaniladigan qo'g'irchoq turlarini ayting. **T.I.:** barmoq qo'g'irchog'i, qo'lqop qo'g'irchoq, marionetka, soya teatri.	Qo'g'irchoq terapiyasining vazifalarini sanang.	Qo'g'irchoq yasash jarayonining terapevtik ahamiyatini izohlang.	Muloqotda qiynaladigan (uyatchan) bola uchun qo'g'irchoq terapiyasi mashg'ulotini loyihalang va asoslang.
10,	**Rang terapiyasi, raqs-harakat terapiyasi va art terapiyaning boshqa yo'nalishlari**	Rang terapiyasi (xromoterapiya) tushunchasini ayting. **T.I.:** rang, nur, kayfiyat, issiq va sovuq ranglar.	M.Lyusherning rang testini ayting. **T.I.:** 8 rang, tanlov tartibi, emotsional holat, diagnostika.	Asosiy ranglarning bolaga psixologik ta'sirini ayting.	Guruh xonalari interyerini bezashda rang terapiyasi tamoyillarini izohlang.	Bolaning doimo qora rangni tanlashi nimani anglatishi mumkin? Fikr bildiring.
10,		Raqs-harakat terapiyasi tushunchasini ayting. **T.I.:** tana, harakat, ritm, raqs, emotsiya, M.Cheys.	Biblioterapiya va fototerapiya haqida ayting. **T.I.:** kitob, badiiy asar, fotosurat, xotira, o'zini anglash.	Raqs-harakat terapiyasining vazifalarini sanang.	Kinezioterapiya va logoritmikaning maktabgacha ta'limdagi o'rnini izohlang.	Art terapiyaning zamonaviy yo'nalishlari (multimedia, kompyuter art terapiyasi) haqida fikr bildiring.
11,	**Art terapiyada diagnostika. Proyektiv rasm testlari**	Proyektiv metodika tushunchasini ayting. **T.I.:** proyeksiya, rasm testi, ichki dunyo, noaniq stimul.	«Uy – daraxt – odam» testini ayting. **T.I.:** J.Buk, uy, daraxt, odam, ramziy ma'no.	«Oila rasmi» metodikasi orqali nimalar aniqlanadi?	«Mavjud bo'lmagan hayvon» metodikasining (M.Z.Dukarevich) mohiyatini izohlang.	Proyektiv rasm testlari natijalarini talqin qilishda yo'l qo'yiladigan xatolar va ularning oldini olish yo'llarini asoslang.
11,		Bolalar rasmini tahlil qilish ko'rsatkichlarini ayting. **T.I.:** o'lcham, joylashuv, qalam bosimi, rang, detallar.	«Odam rasmi» testini ayting. **T.I.:** F.Gudinaf, Gudinaf-Xarris, aqliy rivojlanish, detallar soni.	Art-diagnostikaning afzalliklari va cheklovlarini ayting.	Rasm testlari orqali bolaning xavotirlanish darajasini aniqlash belgilarini izohlang.	Diagnostika natijalari asosida bolaning individual art-terapevtik dasturini tuzish bosqichlarini yoriting.
12,	**Alohida ta'lim ehtiyojli bolalar bilan art terapiya**	Alohida ta'lim ehtiyojli bolalar tushunchasini ayting. **T.I.:** inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan, korreksiya, reabilitatsiya.	Autizm spektrida bo'lgan bolalar bilan art terapiya haqida ayting. **T.I.:** muloqot, sensor sezgirlik, qum, musiqa, ritm.	Nutqi buzilgan bolalar bilan ishlashda art terapiya usullarini ayting.	Giperaktiv bolalar bilan art terapiya ishining xususiyatlarini izohlang.	Inklyuziv guruhda art terapiyaning bolalarning ijtimoiy moslashuviga ta'sirini asoslang.
12,		Agressiv bolalar bilan art terapiya ishini ayting. **T.I.:** agressiya, salbiy hissiyot, bo'shalish, loy, «G'azab varag'i».	Xavotirli va qo'rquvga moyil bolalar bilan art terapiya haqida ayting. **T.I.:** qo'rquv rasmi, xavfsizlik, ertak, qo'llab-quvvatlash.	Ko'rish va eshitishda nuqsoni bor bolalar bilan art terapiya imkoniyatlarini ayting.	Psixologik travma (stress) boshdan kechirgan bolalar bilan art terapiyaning xususiyatlarini izohlang.	Imkoniyati cheklangan bola uchun kompleks art-terapevtik reabilitatsiya dasturini ishlab chiqish tamoyillarini yoriting.
13,	**Maktabgacha ta'lim tashkilotida art terapiya mashg'ulotlarini tashkil etish. Ota-onalar bilan ishlash**	Art terapiya xonasiga qo'yiladigan talablarni ayting. **T.I.:** yorug'lik, xavfsizlik, materiallar, qulay muhit, maxfiylik.	Art terapiya mashg'ulotlarini yosh guruhlariga ko'ra tashkil etishni ayting. **T.I.:** davomiylik, guruhdagi bolalar soni, yosh xususiyatlari, sanitariya talablari.	«Ilk qadam» davlat o'quv dasturida art terapiya elementlarini qo'llash imkoniyatlarini ayting.	Tarbiyachi va psixologning art terapiya ishidagi hamkorligini izohlang.	MTTda bir haftalik art-terapevtik mashg'ulotlar tizimini rejalashtiring va asoslang.
13,		Ota-onalar bilan art terapiya ishini ayting. **T.I.:** oila, bola va ota-ona munosabati, birgalikdagi ijod, maslahat.	Oilaviy art terapiya shakllarini ayting. **T.I.:** birgalikda rasm chizish, oila daraxti, oilaviy kollaj, trening.	Bolaning MTTga moslashuv davrida art terapiyadan foydalanish yo'llarini ayting.	Ota-onalar uchun art-terapevtik trening tashkil etish bosqichlarini izohlang.	Bola va ota-ona munosabatlarini uyg'unlashtirishda art terapiyaning rolini yoriting.
14,	**Art terapevtning kasbiy kompetentsiyasi va etik tamoyillari**	Art terapevt kim? **T.I.:** mutaxassis, psixologik bilim, ijodkorlik, kasbiy tayyorgarlik.	Art terapevtning shaxsiy sifatlarini ayting. **T.I.:** empatiya, sabr-toqat, bag'rikenglik, ijodkorlik, kuzatuvchanlik.	Art terapiyaning etik tamoyillarini sanang.	Art terapiyada maxfiylik va bolaning ijodiy mahsulotiga munosabat qoidalarini izohlang.	Tarbiyachining art-terapevtik kompetentsiyasini rivojlantirish yo'llarini asoslang.
14,		Art terapevt va bola o'rtasidagi munosabatni ayting. **T.I.:** ishonch, xavfsizlik, qabul qilish, baholamaslik.	Art terapiyani qo'llashdagi cheklovlarni ayting. **T.I.:** o'tkir ruhiy holat, allergiya, materialdan qo'rqish, majburlamaslik.	Art terapevtning "kasbiy kuyish" holatining oldini olish yo'llarini ayting.	Art terapiya mashg'ulotining tasviriy faoliyat mashg'ulotidan farqini izohlang.	Kelajakdagi tarbiyachi sifatida art terapiyadan o'z faoliyatingizda qanday foydalanasiz? Fikringizni bayon qiling.